

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Nazarova Marjona Sodiq qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
marjonanazarova32@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning matnni tushunish, asosiy g‘oyani ajratish, yozma ifoda va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli pedagogik yondashuvlar o‘rganildi. Shuningdek, metakognitiv strategiyalar va integratsiyalashgan metodlarning o‘quv jarayonidagi samaradorligi ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv, individual va kreativ yondashuvlar boshlang‘ich ta‘limda o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, diqqat va xotira ko‘nikmalarini mustahkamlaydi hamda ularni mustaqil fikrlashga va o‘zini baholashga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni tarixiy va madaniy meros bilan tanishtirish, Vatan oldidagi burch va mas‘uliyat tuyg‘usini shakllantirish ham o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, pedagogik metodika, metakognitiv strategiyalar, kreativlik, interaktiv metodlar, yozma ifoda, matnni tushunish, o‘quvchi markazli yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика развития навыков чтения у учеников начальных классов. В исследовании анализируются различные педагогические подходы, направленные на развитие способности детей понимать текст, выделять основную мысль, формировать письменную речь и креативное мышление. Также рассматривается эффективность метакогнитивных стратегий и интегрированных методов в учебном процессе. Результаты исследования показывают, что интерактивные, индивидуальные и креативные подходы в начальном образовании способствуют эффективному формированию навыков чтения, повышают мотивацию учащихся, развивают внимание и память, а также стимулируют самостоятельное мышление и самоконтроль. Кроме того, знакомство с историческим и культурным наследием, формирование чувства ответственности перед Родиной играет важную роль в развитии читательской грамотности.

Ключевые слова: Начальное образование, читательская грамотность, педагогическая методика, метакогнитивные стратегии, креативность, интерактивные методы, письменная речь, понимание текста, ученико-ориентированный подход.

Abstract: This article examines the methodology for developing reading literacy among primary school students. The study analyzes various pedagogical approaches aimed at enhancing students' abilities to understand texts, identify main ideas, develop written expression, and foster creative thinking. The effectiveness of metacognitive strategies and integrated methods in the learning process is also considered. Research results indicate that interactive, individual, and creative approaches in primary education contribute to the effective development of reading

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

literacy, increase student motivation, improve attention and memory skills, and encourage independent thinking and self-assessment. Additionally, introducing students to historical and cultural heritage and fostering a sense of responsibility toward their homeland plays an important role in developing reading literacy.

Keywords: Primary education, reading literacy, pedagogical methodology, metacognitive strategies, creativity, interactive methods, written expression, text comprehension, learner-centered approach.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida savodxonlik nafaqat shaxsiy taraqqiyotning, balki butun jamiyatning intellektual rivojlanish darajasining mezoni sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi zamonaviy ta'lim tizimining poydevoriy vazifasi bo'lib, o'quvchining keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning savodxonligini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va integratsiyalashgan metodlarning samarali kombinatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, amaliyotda ko'plab o'quvchilar matnni mexanik o'qiydi, ammo uni tushunish, asosiy g'oyani ajratish va fikr bildirishda qiynaladi. Bunday holatni bartaraf etish uchun o'qituvchidan yangicha yondashuv, kreativlik va faol o'quv muhiti yaratish talab qilinadi.

Maktabda o'qishni yaxshilash uchun metakognitiv strategiyalarni qo'llash juda muhim. Hozir PISA, PIRLS kabi testlar o'tkazilyapti va ular bolalarning matnni tushunishi, uni qayta ishlashi va baholashi ta'lim sifatini ko'rsatyapti. Shuning uchun bolalarga o'zini o'zi boshqarish, fikrlashini nazorat qilish va baholashni o'rgatish kerak. Bu usullar o'qishni yaxshilaydi, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va o'zini baholashga yordam beradi.

O'qish savodxonlik darsliklarining ahamiyati

- Birinchi bosqich: Bolalarda o'qish va yozishni o'rganish bosqichi.
- Ikkinchi bosqich: O'qiganini tushunish va tahlil qilish bosqichi.
- Aholining ma'naviy yuksalishi: O'qish savodxonligini rivojlantirish orqali jamiyatda axborot madaniyatini oshirish.

O'qish samaradorligini yaxshilash maqsadida turli metodik tayyorgarliklar olib borilmoqda ammo talabalarning metodik tayyorgarligida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjud:

– mavjud metodik tajribani o'zlashtirish va rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlash hamda takomillashtirish o'rtasidagi qarama-qarshilik;

– pedagogik oliy ta'lim muassasasida ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi fani va boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi fani o'rtasidagi qarama-qarshiliklar (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va boshlang'ich sinfda o'qitish metodlari metodikasi o'rtasida, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSdagi o'qish savodxonligi fani uchun qo'yilgan kompetensiyalar va oliy ta'lim muassasada metodik tayyorgarlikda boshlang'ich ta'lim uchun ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi o'rtasida) va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili: Kreativlikni rivojlantirish masalalari jahon psixologiya va pedagogika fanida J.Gilford, E.P.Torrens kabi olimlar tomonidan “divergent fikrlash” tushunchasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ularning fikricha, kreativlik — bu intellektning bitta savolga bir

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

nechta to'g'ri javob topa olish va kutilmagan assotsiatsiyalar yaratish qobiliyatidir. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsada, tushuncha hosil qiladilar.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini aniqlash va uning samaradorligini baholash. Tadqiqot obyekti boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayoni, predmeti esa o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish usullari hisoblanadi. Tadqiqotda nazariy va empirik usullar qo'llanildi. Nazariy usul sifatida ilmiy adabiyotlar, darsliklar va metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Empirik usullar – kuzatuv, test sinovlari, intervyu va eksperiment orqali o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalari o'rganildi. Tadqiqot bosqichlari tayyorlov (adabiyotlarni o'rganish va metodik vositalarni ishlab chiqish), asosiy (interaktiv va individual metodlarni qo'llash va kuzatish) va natijalarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, metakognitiv va kreativ pedagogik metodlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish samaradorligi oshadi, lingvistik, kognitiv va motivatsion ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi jihatlarda samarali:

- Lingvistik rivojlanish: So'z boyligi, imlo qoidalarini bilish va matnni tushunish qobiliyati sezilarli darajada oshadi
- Kognitiv ko'nikmalar: Diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.
- Motivatsiya va o'z-o'zini baholash: Interaktiv va individual metodlar bolalarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa o'quv jarayonida qiziqishni oshiradi.
- Yozma nutq rivoji: Diktantlar, matnlarni yozib chiqarish va ijodiy mashg'ulotlar bolalarning yozma ifoda ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv, individual va kreativ pedagogik yondashuvlar, shuningdek metakognitiv strategiyalar, o'quvchilarning matnni tushunish, asosiy g'oyani ajratish, yozma ifoda va kreativ fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning diqqat, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi, ularni mustaqil fikrlashga va o'zini baholashga rag'batlantiradi, shuningdek o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Shuningdek, o'quvchilarni tarixiy va madaniy meros bilan tanishtirish, Vatan oldidagi burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik metodlar va integratsiyalashgan yondashuvlar boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini samarali shakllantirish va mustahkamlash imkonini beradi. Shu tariqa, o'qish savodxonligini rivojlantirish nafaqat individual o'quvchining bilim darajasini oshiradi, balki jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xo'Jamatova, D. B. (2025). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA O 'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'LLARI. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 859-862.
2. Dinara, A. (2025). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA O 'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 4(12), 61-63.
3. Muslima, T. (2025). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'QISH DARSLARINI INNOVATSION METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 80(4), 200-204.
4. Jumaniyozova Roxila Ro'zimboevna. (2026). BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Ta'limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari*, 51(2), 6-9.
5. Zokirovna, U. M. (2025). O'QISH DARSLARIGA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH. " *ILM FAN IFTIXORI*", 1(1).
6. Ro'ziboyevna, S. T. (2025). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA O 'QISH VA YOZISH KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI. *SHOKH LIBRARY*, 1(11).
7. Ergasheva, S. T. (2025). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI O 'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHDA INNOVATSION METODLAR VA DIDAKTIK YONDASHUVLAR. *IZLANUVCHI*, 2(2), 52-55.